

NOGIRONLIK FENOMENIGA TARIXIY-FALSAFIY VA IJTIMOYIY YONDASHUVLAR: INSON MARKAZCHILLIGI VA INKLUZIVLIK QARAMA-QARSHILIGI

Avezov Muzaffar Ibragimovich

Faxriddin ar Roziy islom o'rta ta'lim madrasasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nogironlikka bo'lgan tarixiy, diniy, falsafiy va ijtimoiy yondashuvlar bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Dastlab nogironlik jazo sifatida qabul qilingan bo'lsa, keyinchalik diniy va yunon falsafasi ta'sirida inson markazchilligi kuchaygan. Uyg'onish va Sanoat inqilobi davrida esa nogironlar mehnatga yaroqsiz deb baholangan. XX asrdan boshlab ekologik va feminist yondashuvlar nogironlikni ijtimoiy muammo sifatida ko'ra boshladi. XXI asrda esa inson huquqlari nuqtai nazaridan nogironlik global darajada tan olinib, huquqiy asosda himoyalana boshlandi. Maqolada bu jarayonlarning tarixiy-falsafiy ildizlari o'rganiladi.

Kalit so'zlari: *Nogironlik, inson, falsafa, uyg'onish davri, sanoat inqilobi, huquqiy himoya, inkluzivlik, feminist yondashuv, ekologik yondashuv, inson huquqlari, ijtimoiy muammo, tarixiy tahlil.*

ANNOTATION

This article examines historical, religious, philosophical, and social approaches to disability step by step. Initially, disability was viewed as a punishment, but later, influenced by religion and Greek philosophy, anthropocentrism became dominant. During the Renaissance and Industrial Revolution, disabled individuals were perceived as unfit for labor. From the 20th century onward, ecological and feminist perspectives began to recognize disability as a social issue. In the 21st century, disability has been globally acknowledged from a human rights perspective and legally protected. The article explores the historical and philosophical roots of this transformation.

Keywords: *disability, human, philosophy, Renaissance, Industrial Revolution, legal protection, inclusion, feminist approach, ecological approach, human rights, social issue, historical analysis.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье поэтапно анализируются исторические, религиозные, философские и социальные подходы к инвалидности. Изначально инвалидность воспринималась как наказание, но позже под влиянием религии и греческой

философии укрепился антропоцентризм. В эпоху Возрождения и промышленной революции инвалидов считали неспособными к труду. С XX века экологические и феминистские подходы начали рассматривать инвалидность как социальную проблему. В XXI веке инвалидность признана на глобальном уровне как вопрос прав человека и получила правовую защиту. В статье изучаются историко-философские корни этих процессов.

Ключевые слова: *инвалидность, человек, философия, эпоха Возрождения, промышленная революция, правовая защита, инклюзия, феминистский подход, экологический подход, права человека, социальная проблема, исторический анализ.*

KIRISH

Dunyo bo'ylab va biz yashayotgan mintaqada nogironlikka bo'lgan munosabatlar turli bosqichlardan o'tib, bugungi holatiga yetib kelgan. Ilk davrlarda Xudo tomonidan jamiyat va oilalarga yuborilgan salbiy xabar deb qabul qilingan nogironlar, shu sababli tiriklayin qabrlarga ko'milgan yoki yolg'iz o'limga tashlab qo'yilgan. O'rta asrlarda esa bu munosabat biroz yumshab, nogironlar qariyalar uylari yoki ruhiy kasalliklar shifoxonalarida yashash imkoniga ega bo'lgan, atrofdagilarning va xayriya tashkilotlarining yordami bilan hayotlarini saqlab qolishga harakat qilganlar. Shu bilan birga, tilanchilik kabi ishlar orqali hayot kechirishlariga ruxsat berilgan¹.

Qadimgi Yunon falsafasi va madaniyati qayta tiklangan Uyg'onish davrida inson markazga olingan, nogironlikning davolanishi va nogironlar uchun mos ta'lim metodlari ishlab chiqila boshlangan.

METODOLOGIYA

Sanoat inqilobi bilan birga ishlab chiqarishga asoslangan yangi tizim vujudga kelgan va nogironlar bu jarayonda iqtisodiyotning turg'un sinfi sifatida ko'rilgan. Shu davrda nogironlar ta'limida yirik o'zgarishlar sodir bo'lgan, ayniqsa karlar va ko'rlar uchun internat maktablari ochilgan². Biroq, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab nogironlikka bo'lgan munosabatda keskin burilish yuz beradi. Irsiy gigiyena va "sog'lom jamiyat" g'oyasi ostida nogironlar, ayniqsa aqliy yoki jismoniy cheklovlarga ega shaxslar jamiyat uchun "zararli elementlar" deb e'lon qilina boshlanadi. XX asr boshlarida bu yondashuv eng dahshatli ko'rinishini fashistik Germaniyada namoyon etadi: nogironlar majburiy sterillash, hattoki ommaviy yo'q

¹ Demirci, M. E. (2005). Homeros'tan Aşık Veysel'e tarihte ve toplum yaşamında körler: bilgelik mi, çaresizlik mi? İstanbul: Boğaziçi Üniversitesi Yayınevi. 113-115-betlar

² Braddock, D. L., ve Parish, S. L. (2011). Sakatlığın kurumsal tarihi. Sakatlık Çalışmaları: Sosyal bilimlerden bakmak, 125-126-betlar).

qilish amaliyotlariga duch keladi. Bu holat insoniyat tarixidagi eng mudhish irsiy tozalash siyosatining bir qismi bo'lib, nogironlikni nafaqat ijtimoiy, balki biologik nuqson sifatida ko'rish tendensiyasining yuqori cho'qqisidir. Aynan shu davrda, nogironlik ijtimoiy konstruksiya sifatida emas, balki genetik xatolik deb baholangan. Natijada, nogiron shaxslar jamiyatdan yakkalab qo'yiladi va ularning huquqlari butunlay poymol etiladi.

Ammo Ikkinchi Jahon Urushidan keyingi yillarda nogironlikka bo'lgan yondashuv asta-sekin o'zgaradi. Urushdan qaytgan ko'plab faxriylarning jismoniy nogironligi mavjud bo'lsa-da, ular jamiyatda o'z o'rnini topa boshlaydi. Bu holat nogironlikni endilikda faqat individual nuqson emas, balki ijtimoiy muammo sifatida ko'rishga zamin yaratadi. 1960–1980-yillar davomida fuqarolik huquqlari harakatlari, ayollar va irqiy tenglik uchun kurashgan ijtimoiy guruhlar nogironlar huquqlari uchun ham yo'l ochadi. Shu davrdan boshlab nogironlarning ta'lim, ishga joylashish va jamiyatda faol ishtirok etishi uchun imkoniyatlar kengaytiriladi. Nogironlik endi yordamga muhtojlik emas, balki jamiyat tuzilmasidagi nomutanosiblik natijasida paydo bo'ladigan to'siqlar tizimi sifatida qayta talqin etila boshlaydi.

TAHLIL

20-asrning ikkinchi yarmida, urush tufayli ko'plab fuqarolar nogiron bo'lib qolgan va ularning jamiyatga integratsiyasi siyosiy masalaga aylangan. Bu davrda nogironlikni qayta ko'rib chiqish boshlanib, 1960-yillardan boshlab diskriminatsiya va teng huquqli ta'lim huquqi talab qilingan³. 1980-yillarda esa bu harakatlar atrof-muhit va ijtimoiy sabablarga ko'proq e'tibor qaratgan.

Nogironlar asta-sekin jamiyatning barcha sohalarida fuqarolik huquqlariga ega bo'lish yo'lida oldinga siljigan. Nihoyat, 21-asr boshida BMTning Nogironlar huquqlari konvensiyasi hayotga tatbiq etilgan. Endilikda nogironlikka oid qonuniy kurashlar ushbu konvensiyani asos qilib olmoqda.

Aristotel (mil. avv. 4-asr) tirik mavjudotlarni ierarxik piramida shaklida joylashtirgan: o'simlik, hayvon va inson. Rönesansdan Sanoat inqilobigacha insonni mukammal mavjudot sifatida idealizatsiya qilish davom etgan⁴.

San'at, madaniyat, mehnat va inson tabiati haqida Leonardo da Vinchining mukammallikka asoslangan qarashlari Yevropada ustun nuqtaga aylangan. Biroq bu qarashlar nogironlarni normal jamiyatdan ajratgan.

Sanoat inqilobi bilan og'ir mehnat talab qiladigan ishlar insonning funksionalligiga qarab taqsimlana boshlangan. Bu esa nogironlarni iqtisodiy foydasiz deb hisoblashga olib kelgan.

³ Meşe, İ. (2014). Engelliliği açıklayan sosyal model nedir? Sosyal Politika Çalışmaları Dergisi(33), 83-bet

⁴ Akıllı, S. (2017). Hayvan çalışmaları insan-merkezci olmaktan kurtulabilir mi insansonrası kuramların sundukları. Şarki Edebiyat ve Sanat Dergisi(2), 64-76.

Keyinchalik, ekologik va feminist harakatlar insonni tabiatga qo'shgan zararini tan olib, nogironlikni ijtimoiy va ekologik kontekstdan baholay boshlagan. Feministlar inson tabiatni nazorat qilmasligi, balki bir qismi bo'lishi kerakligini ilgari surgan.

Nogironlikka oid harakatlar ham aynan shu asosda rivojlanib, inson huquqlari nuqtai nazaridan kurash olib borayotgan jamiyatlarga huquqiy jihatdan ta'sir o'tkazgan.

XX asrning ikkinchi yarmida nogironlikka bo'lgan yondashuvda tub o'zgarishlar yuz berdi. Bir tomondan, inson huquqlari konsepsiyasi kengayib, nogironlarning ham to'laqonli fuqarolik subyekti sifatida e'tirof etilishi yo'lga qo'yildi. Nogironlik endi shaxsga xos muammo emas, balki jamiyatda mavjud bo'lgan infratuzilma, diskriminatsion siyosat va stereotiplardan kelib chiqadigan tizimli muammo sifatida tushunila boshladi. Bu davrda "ijtimoiy model" deb nom olgan yondashuv nogironlikni jamiyat tomonidan yaratilgan to'siqlar natijasi sifatida ko'rib chiqdi. Jumladan, 1980-yillarda ishlab chiqilgan "Nogironlik bo'yicha BMT Jahon modeli" nogironlarni faqat yordamga muhtoj guruh emas, balki faol ishtirokchiga aylantirish g'oyasini ilgari surdi. Bu yondashuv nafaqat siyosiy va huquqiy o'zgarishlarga, balki jamoat ongining o'zgarishiga ham turtki berdi.

Bugungi kunga kelib, nogironlik masalasiga inklyuzivlik tamoyili asosida yondashilmoqda. Bu tamoyilga ko'ra, nogiron shaxslar jamiyat hayotining barcha sohalarida – ta'lim, mehnat, sog'liqni saqlash, siyosat va madaniyatda – teng ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Inson markazchilligini inkor etmagan holda, zamonaviy falsafa har bir insonning qadriyatini tan oladi va uning ijtimoiy sharoitlarga bog'liqligini hisobga oladi. Endilikda nogironlikni anglashda biologik determinizm emas, balki ijtimoiy adolat, huquqiy tenglik va madaniy xilma-xillik mezonlari asosiy o'ringa chiqmoqda. Shu orqali nogironlik atrofidagi tarixiy, falsafiy va siyosiy stereotiplar asta-sekin bartaraf etilib, global miqyosda yanada inklyuziv jamiyat sari harakat qilinmoqda.

NATIJA

Insonlar va inson bo'lmagan mavjudotlar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar, tabiatdagi o'zaro munosabatlar va aloqalar doimiy ravishda muhokama qilinib kelmoqda. Darhaqiqat, aql bilan tafakkur qila oluvchi mavjudot sifatida insonning boshqa mavjudotlarga bo'lgan munosabati uning o'zini qaerda ko'rayotganiga bevosita bog'liqdir. Bunday qarashlar, odamzod o'zidan keyingi avlodlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan qadimiy fikrlar bilan bog'lanadi. Bu g'oyalar ilk bor Qadimgi Yunon faylasufi Aristotel tomonidan ilgari surilgan.

Oʻrta asrlarda bu tafakkur yanada kuchaygan, inson ierarxiyaning eng yuqori pogʻonasiga joylashtirilgan. Xudo tomonidan yaratilgan mukammal mavjudot sifatida inson oʻzini boshqa mavjudotlardan ustun deb hisoblagan. Bu yondashuv Oʻrta asrlar davomida saqlanib qolgan boʻlsa-da, baʼzi oqimlar esa insonni markazdan chetda tasvirlashga uringan.

Skolastik fikr va qadimgi Yunon falsafasi oʻrtasidagi munosabatlar kuchaygan 12-asrda inson aqlining markaziyliigi yana qayta koʻtarildi⁵. 13-asrda esa Petrarka kabi mutafakkirlar fikricha, inson aqlining oʻzi uygʻonish davrining timsoliga aylandi.

Uygʻonish davrida inson aqlining kuchi kuchayib, xristian gumanistlari — masalan, Giovanni Pico della Mirandola — insonning eng oliy mavjudot ekanini taʼkidladi. Unga koʻra, Xudo insonni dunyoda yagona mavjudot sifatida yaratgan ekan, unga mukammallikni tushunish qobiliyatini ato etgan va uni istalgan boshqa mavjudotlar bilan tenglashtirib qoʻygan.

Desiderius Erasmus esa insonning aql-idroki va jismoniy qobiliyatlari uni boshqa mavjudotlardan ajratib turadi, deb hisoblagan. 16-asrga kelib, bu gʻoyalar Giorgio Vasari tomonidan keng yoyilgan. Vasari insonni boshqa mavjudotlardan aql va sanʼatga boʻlgan moyilligi bilan ajratgan.

Humanistik fikrlar ortidan shakllangan yangi tafakkurda inson ilohiy belgilarni oʻzida mujassamlashtirgan mavjudot sifatida tasvirlangan⁶. Biroq bu yondashuvlar insonni oʻz ixtiyori bilan axloqiy tanlov qilishga majbur qilgan, bu esa yangi savollarni keltirib chiqargan. Uygʻonish davridagi qarashlar oʻzida diniy qadriyatlar bilan inson aqlining ustuvorligini uygʻunlashtirishga uringan. XVII–XVIII asrlarga kelib, Aql asri yoki Maʼrifat davrida insonning tafakkuri va ilmiy salohiyatiga boʻlgan ishonch yanada ortdi. Bu davrda René Descartes, John Locke, Immanuel Kant kabi mutafakkirlar insonni bilish, tahlil qilish va atrof-muhitni oʻzgartirish salohiyatiga ega mavjudot sifatida talqin qildilar. Ayniqsa, Dekardning “Oʻylayapman, demak borman” tamoyili insonni tafakkur markaziga qoʻydi va boshqa mavjudotlardan ustun qoʻyilishiga nazariy asos boʻldi. Bu qarashlar insonni tabiatdan ajratgan holda, uni nazorat qiluvchi, atrof-muhit ustidan hukmronlik qiluvchi kuch sifatida idealizatsiya qildi. Shu tariqa, inson va tabiat oʻrtasidagi birligi buzildi, qolaversa, inson aqli va ehtiyojlari butun mavjudotlar tizimining markazi sifatida qaraldi.

Biroq XIX asrga kelib, bu gumanistik va antropotsentrik yondashuvga qarshi tanqidiy oqimlar shakllana boshladi. Nihoyat XX asrda fenomenologik, ekzistensial

⁵ Nauert, C. G. (2011). Avrupada hūmanizma ve rōnesans kōltūrō. İstanbul: Tūrkiye İş Bankası Kōltūr Yayınları. s. 9–10

⁶ Davies, T. (2010). Hūmanizm. (E. Bozkırlı, Çev.) Ankara: Elips Kitap.

va postmodern yondashuvlar insonning mohiyati va uning mavjudotlar ierarxiyasidagi o'rnini qayta ko'rib chiqishga undadi. Martin Haydegger insonni "dunyo ichra bo'lish" (Dasein) holatida, mavjudlikni anglashga qodir mavjudot sifatida ta'rifladi, biroq bu mavjudlik boshqa mavjudotlar hisobiga emas, balki o'z mohiyatini anglash orqali vujudga kelishini ta'kidladi. Shu bilan birga, ekologik ong va tabiatni muqaddaslashtirish g'oyalari, ayniqsa XXI asrda, insonni yagona hukmdor emas, balki ekologik tizimning teng huquqli a'zosi sifatida ko'rishga chaqirmoqda. Bu yondashuvlar insonni markazdan olib tashlab, mavjudotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tiklashga intilmoqda.

XULOSA

Ushbu maqolada nogironlik fenomeniga bo'lgan yondashuvlarning tarixiy, falsafiy va ijtimoiy asoslari tizimli tarzda tahlil qilindi. Ilk davrlarda nogironlik salbiy tusda talqin qilingan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan inson markazchilligiga asoslangan nazariyalar uni chetlashtirishga olib keldi. Ammo ekologik, feminist va inson huquqlari asosidagi zamonaviy yondashuvlar nogironlikni jamiyatda tenglik, inklyuzivlik va adolat masalasi sifatida talqin qilmoqda. Bu esa global miqyosda nogironlarga nisbatan hurmat, teng huquq va faol ishtirok imkonini yaratishga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Demirci, M. E. (2005). Homeros'tan Aşık Veysel'e tarihte ve toplum yaşamında körler: bilgelik mi, çaresizlik mi? İstanbul: Boğaziçi Üniversitesi Yayınevi. 113-115-betlar
2. Braddock, D. L., ve Parish, S. L. (2011). Sakatlığın kurumsal tarihi. Sakatlık
3. Çalışmaları: Sosyal bilimlerden bakmak, 125-126-betlar).
4. Meşe, İ. (2014). Engelliliği açıklayan sosyal model nedir? Sosyal Politika Çalışmaları Dergisi(33), 83-bet
5. Akıllı, S. (2017). Hayvan çalışmaları insan-merkezci olmaktan kurtulabilir mi insansonrası kuramların sundukları. Şarki Edebiyat ve Sanat Dergisi(2), 64-76.
6. Nauert, C. G. (2011). Avrupada hümanizma ve rönesans kültürü. İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları. s. 9–10
7. Davies, T. (2010). Hümanizm. (E. Bozkırlı, Çev.) Ankara: Elips Kitap.